

Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги нашри ○

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган



ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

ФВВ Марказий аппаратида вазирликнинг 2023 йил 1-ярим йиллиги якунларига бағишланган ҳайъат йиғилиши ўтказилди.

Фавқулдда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев раҳбарлигида ўтказилган мазкур йиғилишда ҳисобот даврида фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш, ёнгин хавфсизлигини таъминлаш ва фуқаро муҳофазаси соҳасида амалга оширилган ишлар сарҳисоб қилиниб, мавжуд муаммолар, уларнинг ечими

бўйича долзарб вазифалар кўриб чиқилди.

Танқидий руҳда ўтказилган муҳокамалар давомида жорий йилнинг 2-ярмида амалга оширилиши лозим бўлган устувор вазифалар белгиланиб, соҳа йўналишлари бўйича республика, вилоят, туман, шаҳар даражаларида тадбирлар самардорлигини ошириш юзасидан масъул раҳбарларга топшириқлар берилди.

ФВВ матбуот хизмати.




ЁШЛАР БИЛАН МУЛОҚОТ

Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари полковник М.Муҳитдинов “Маҳалладан вазирликкача” тамойили асосида Тошкент вилоятида бекободлик ёшлар билан учрашди.



Учрашув давомида ёшлар муаммолари ўрганилиб, уларнинг бандлигини таъминлаш бўйича аниқ ва манзилли ишлар ташкил этилди. Ёшларнинг ижтимоий аҳволини ўрганиш учун уларнинг яшаш жойлари ҳам кўздан кечирилди. Шунингдек, ёшларнинг қобилияти ва қизиқишларини ривожлантириб, уларнинг касб-хунарга эга бўлишига имконият яратишга алоҳида эътибор қаратилди.

ФВВ матбуот хизмати.



УШБУ СОНДА:

- AMALIY SABOQ**  4-бет
- МАШАҚАТЛИ КАСБ ЭГАСИ**  5-бет
- ОЙЛИК ДОИРАСИДА**  6-бет
- ЖЎШҚИН МУШОИРА**  8-бет

ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАНДИ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Ботир Кудратходжаев раислигида онлайн ва офлайн тарзда навбатдаги ҳайъат йиғилиш бўлиб ўтди.

Йиғилишда маҳкама ва барча ҳудудий ҳарбий прокуратуралар прокурор-тергов ходимлари иштирок этди.

Дастлаб янги таҳрирдаги Конституция, бошқа қонун ва қонун-ости ҳужжатлари, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 23 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари тизимида қонунийликни таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони асосида амалга оширилган ишлар қатнашчилар эътиборига етказилди.

Шундан сўнг муҳокамаларда ҳарбий прокуратура органларининг Қуролли Кучларда қонунийликни мустаҳкамлаш, ҳарбий хизматчилар ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилиш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасида 2023 йилнинг 6 ойидаги фаолияти сарҳисоб қилинди ҳамда келгусидаги вазифалар белгилаб олинди.

Сардор ОХУНОВ,
Республика ҳарбий прокуратураси бўлим катта ҳарбий прокурори, адлия подполковниги.



Ўзбекистон Республикаси ФВБ тизимида коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларга имкон яратаётган сабаблар ва шарт-шароитларни таг-томири билан йўқотишга биринчи даражадаги муҳим вазифа сифатида қаралмоқда.

ТАҲЛИЛ ВА ТАВСИЯ

Шу жумладан, бошқарма ва таркибий тузилмаларда хизмат олиб бораётган ёш ҳарбий хизматчилар, вазирлик Академияси, Қуролли Кучлар таркибига кирувчи бошқа вазирлик ва идоралар тасарруфидаги ҳамда хорижий олий ҳарбий таълим билим юртларини битириб, хизматни давом эттириш учун вазирлик ихтиёрига юборилган, шартнома бўйича биринчи маротаба ҳарбий хизматга қабул қилинган, лавозимга киришганига уч йилдан кўп бўлмаган ёш ҳарбий хизматчиларнинг ҳарбий хизматга мослашуви, касбий шаклланиш ва юклатилган хизмат вазифаларини мустақил бажариш қобилиятини ривожлантириш жараёни тезлашишини таъминлаш, уларнинг оилавий шароитлари билан яқиндан танишиш, ижтимоий-ҳуқуқий қўллаб-қувватлаш ва улар томонидан жиноят, ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг олдини олиш юзасидан бажарилиши лозим бўлган ишлар белгилаб олинди, бу борада 10 банддан иборат “Йўл харитаси” ишлаб чиқилди.

Мазкур “Йўл харитаси”га асосан бошқарма тизимида хизмат қилаётган вазирлик Академияси ва бошқа билим юртларини тамомлаган 15 нафар ҳамда шартнома бўйича биринчи маротаба ҳарбий хизматга қабул қилинган, 78 нафар ёш ҳарбий хизматчининг рўйхати шакллантирилиб, уларнинг ҳар бири билан индивидуал тартибда оилавий аҳволи ва яшаш шароитлари, ҳарбий хизматни ўташга ва эгаллаб турган лавозимига бўлган муносабати, қонун ва ҳуқуқбузарликларни содир этишга мойиллигини яқиндан ўрганиш бўйича олиб бориладиган манзилли ишлар белгилаб олинди.

Ҳозирда бошқарма ва унинг қуйи тизимларида коррупцияга қарши муросасиз кураш муҳитини шакллантириш, бу борада ёшлар билан режали ишлаш юзасидан тегишли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Ғ.УМРБЕКОВ,
Фарғона вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, подполковник.
А.АРИПЖАНОВ,
бўлим бош инспектори, майор.

ИЛЛАТГА ҚАРШИ

Сирдарё вилояти ФВБда “Коррупция — тараққиёт кушандаси” мавзусида семинар ўтказилди.



Тадбирда бошқарма раҳбарияти ҳамда Гулистон ҳарбий прокуратураси томонидан шахсий таркиб ўртасида коррупциявий ҳолатларнинг олдини олиш борасида амалга оширилаётган тадбирлар тўғрисида тўхталиб ўтилди. Тартиб-интизом ва масъулиятни қучайтириш жиноятчиликнинг олдини олиш муҳитини мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарликнинг олдини олишдаги асосий омил эканлиги таъкидланди.

Бундан ташқари, Гулистон ҳарбий прокурори томонидан ўтган

2023 йилнинг 6 ойи давомида вилоятда ҳарбий хизматчилар томонидан содир этилган ҳуқуқбузарлик ва жиноятчилик ҳолатларининг таҳлили ўқиб эшиттирилиб, ФВБ шахсий таркиби ўртасида ҳуқуқбузарликлар содир этилмаганлиги қайд этилди.

Авазбек ИБРАГИМОВ,
Сирдарё вилояти ФВБ бўлим бош инспектори, подполковник.
Фазлиддин ҲОДЖАЕВ,
ФВБ бўлим бошлиғи, подполковник.

ДОИМИЙ БУРЧ

Республикамизда коррупцияга қарши кураш соҳасида мақсадли сиёсат олиб борилмоқда. Жумладан, ушбу соҳада қонунчилик асосларини такомиллаштириш, давлат органлари, жамиятнинг очиқлигини таъминлаш, ахборотлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш борасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Қонунга кўра, коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни амалга оширувчи, бу жараёнда иштирок этувчи органлар ҳамда ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш учун коррупцияга қарши курашиш бўйича республика идоралараро комиссияси ташкил этилган.

Коррупцияга қарши курашиш

соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари ва принципларини белгилашда бундай ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлаш масаласи қатъий ҳисобга олинган.

Шухрат ЭСАНОВ,
Тошкент шаҳар ФВБ ШХБ бошлиғи, подполковник.



ANJUMAN

Namangan viloyati FVBda "Dolzarb 30 kun" tadbiri yuzasidan o'tkazilgan matbuot anjumanida boshqarma boshlig'i general-mayor Qosimali Ahmedov va mas'ul harbiy xizmatchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga oid materiallar taqdim etildi.

Tadbirda jurnalist va blogerlarning savollariga javob berildi.

Namangan viloyati FVB axborot xizmati.



KELAJAK POYDEVORI

Xorazm viloyati FVB xodimlari o'zlariga biktirilgan yoshlarning muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularning salomatligini tiklash, o'z-o'zlarini band qilishlariga ko'maklashish maqsadida Yangiariq tumani Kattabog' qishlog'ida istiqomat qiluvchi yoshlar bilan uchrashdi.

Tadbir davomida yoshlarning muammolari o'rganilib, axborot texnologiyalari sohasiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshga kompyuterlar jamlanmasi, yana bir nafariga zamonaviy tikuv mashinasi tuhfa etildi. Ko'rish qobiliyatidan

shikoyat qilgan bir nafar yosh esa Urganch shahrida tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va shu vaqtdan e'tiboran ko'zlarini davolash ishlari boshlab yuborildi.

O'lmas MEYLIYEV,
Xorazm viloyati FVB boshlig'i, polkovnik.



BOLAJONLAR UCHUN

Olmazor tumanida joylashgan 52-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tuman FV bo'limi tomonidan o'tkazilgan profilaktik uchrashuvda bo'lim inspektori, katta leytenant M.Murodov, FVV Akademiyasi 4-bosqich kursanti Ilhom Ayarbergenovlar ishtirok etib, bog'cha tarbiyachi va tarbiyalanuvchilariga ochiq elektr simlaridan foydalanmaslik, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarni kelib chiqishiga yo'l qo'yimaslik zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, gugurt va yong'in keltirib chiqaruvchi manbalardan foydalanmaslik, ota-onalar ruxsatisiz ochiq suv havzalariga bormaslik, olov bilan o'ynamaslik,

xususida so'z yuritildi.

A.MUHAMMADJONOV,
Olmazor tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.



O'rtachirchiq tumani FV bo'limi tomonidan "Dolzarb 30 kun" tadbirini samarali o'tkazish bo'yicha ijtimoiy soha maskanlari va aholi turar-joylarining yong'inga qarshi holatini o'rganish, fuqarolar bilan targ'ibot-tashviqot ishlari tashkil etilmoqda.

MAS'ULIYAT VA BURCH

Tadbirlar davomida ishtimoiy soha obyektlari va qurilish maskanlari o'rganilib, mutasaddi xodimlar hamda quruvchilarga yong'in xavfsizligi qoidalarga rioya qilish bo'yicha yo'riqnoma o'tkazildi.

J.QAMBAROV,
O'rtachirchiq tumani FV bo'limi NTB boshlig'i, kapitan.

A.ZOKIROV,
bo'inma inspektori, katta serjant.

ZARUR ERDAM

Сурхондарё вилояти Сарисий тумани тоғли худудида қисқа муддатли кучли ёмғир ёғиши натижасида "Хўжаасмин" ва "Чош" аҳоли яшаш пунктларини боғловчи тоғли довон автомобиль йулидан сел сувлари оқиб ўтиши сабабли ушбу довон йули катта харсангтош ва лойқалар сабабли ёпилиб қолган.

Мазкур йўлда 3 та енгил "УАЗ" автомобили ва 8 нафар фуқаро ҳаракатсиз қолиб кетганлиги аниқланган.

Фуқароларга амалий ёрдам курсатилиб, яшаш жойларига кузатилди. Сел келиши оқибатида тан жароҳати олган ва вафот этганлар қайд этилмади.

Ж.ЖУРАЕВ, Сурхондарё вилояти ФВБ ЖТ ва ОАВВХҚГ бошлиғи, капитан.

Тошкент шаҳар ФВБ шахсий таркиби томонидан мамлакатимизда ташкил этилаётган "Долзарб 30 кун" тadbirlari доирасида жойларда бир қатор амалий тadbirlar ташкиллаштирилмоқда.

ДОЛЗАРБ 30 КУН

Тadbirlar давомида аҳоли, давлат ва жамоат ташкилотлари ишчи-ходимларига ёнғин ва бошқа тусдаги фавқулдда вазиятлар, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилиш юзасидан тушунтиришлар берилиб, мавзуга доир материаллар тарқатилмоқда.

Ҳозирда ушбу тadbirlar мутасадди ташкилотлар ҳамкорлигида давом эттирилмоқда.

Маъсудали САЙИДИЙ,
Тошкент шаҳар ФВБ ЁХТТЭБ инспектори, капитан.

REJALI ISHLAR



Chilonzor tumani FV bo'limi hamda O'zbekiston Respublikasi Qizil Yarim Oy jamiyati hamkorligida uyushmagan yoshlarga favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakatlanish tartibi, yong'inni birlamchi holatda o'chirish usullari o'rgatilib, amaliy o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Bu kabi tadbirlar rejali tartibda davom ettirilmoqda.

S.NABIJONOV,
Chilonzor tumani FV bo'limi inspektori.

Olmaliq shahar FV bo'limi tomonidan yangi qurilayotgan hamda rekonstruksiya qilinayotgan bino va inshootlarda texnika va yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

QURILISH OBYEKTLARIDA

Ushbu tadbirlarda bino ichida o'zboshimchalik bilan loyihadan tashqari qurilish inshootlarini olib borishga yo'l qo'yimaslik lozimligi, elektr tarmoqlarini to'g'ri montaj qilish, yong'in sodir bo'lishining oldini olish, favqulodda vaziyat yuzaga kelganda fuqarolarni qutqarish, evakuatsiya ishlarini amalga oshirish yuzasidan tushuntirishlar berilmoqda.

Shaxzod SHERQULOV, Olmaliq shahar FV bo'limi MTB boshlig'i, katta leytenant.



Самарқанд туманидаги "Алпомиш" номли болаларни соғломлаштириш оромгоҳида вилоят ФВБ томонидан профилактик тadbir ташкил этилди.

"АЛПОМИШ"ДА КЎРГАЗМА



Унда болажонларга турли тусдаги фавқулдда вазиятлар содир бўлганда туғри ҳаракатланиш усуллари ўргатилди.

Шунингдек, махсус ёнғин-қутқарув техникалари, асбоб-анжомлар кўргазмаси ўтказилди.

Тadbir якунида фаол иштирок этган болажонлар тақдирланишди.

Акмал ВОҲИДОВ,
Самарқанд вилояти ФВБ инспектори, капитан.

АЭРОПОРТДА ЙИФИЛИШ

Урганч халқаро аэропортида ўтказилган "Долзарб 30 кун" тadbirida Хоразм вилояти ФВБ бошлиғи уринбосари подполковник Х.Рахметов иштирок этиб, ёнғинлар ва бошқа тусдаги фавқулдда вазиятлар, уларда жароҳатланиш ҳолатларининг олдини олиш мақсадида, чора-тadbirlar белгиланганлиги, шунга қарамасдан бундай ҳолатлар ҳамон учраб турганлигини айтиб ўтди.

Шунингдек, ҳаво кемаларида фавқулдда вазиятлар ва ёнғинларда ходимларнинг жанговарлигини ошириш мақсадида биргаликда ўқув амалий-тактик машқ ва машғулотларини мунтазам равишда ўтказиб бориш кераклиги қайд этилди.

С.ИСКАНДАРОВ,
Хоразм вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, капитан.
И.МАТЯКУБОВ,
бўлим инспектори, катта лейтенант.

КЎПРИКДА СИНОВ

А-373 – “Тошкент-Ўш” автомобиль йўлининг “Қамчиқ” довонидан ўтган қисмининг 220 км.да жойлашган “Оҳангаронсой” ва “Қамчиқсой” кўприклари ҳудудида “Табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятларни бартараф этишда объект ФМ тузилмаларининг ҳудудий ФВДТ хизматлари билан ҳамкорликдаги ҳаракатлари” мавзусида ўқув машқи ўтказилди.



Ўқув машқининг ғоясига кўра, кўприк ҳудудидан ўтиб кетаётган юк автомобили ҳайдовчиси бошқарувни йўқотиб, йўл-транспорт ҳодисаси содир бўлган. Натижада кўприкни қўриқлаш ҳарбийлаштирилган бўлинмасининг бир нафар ходими ва юк автомобили ҳайдовчиси тан жароҳати олиб, юк автомобилида ёнғин келиб чиққан.

Фавқулодда вазият оқибатларини объект Фуқаро муҳофазаси тузилмалари ҳамда тегишли ФВДТ хизматлари куч ва воситалари билан ҳамкорликда бартараф этилди.

М.МИНГБОЕВА,
“Қамчиқ” МҚЁҚБ ходими,
оддий аскар.

“QARSHI CITY” DA TADBIR

Qashqadaryo viloyati FVB va mutasaddi xizmatlar hamkorligida “Qarshi City” mavzesidagi 16 qavatli aholi turar joylarida o'quv mashg'uloti tashkil etildi.

Unda shartli yong'in qutqaruvchilar tomonidan bartaraf etilib, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy tarzda ko'rsatildi.

G'uzor tumanidagi “Mustaqillik” MFY hududidagi 5 qavatli binoda o'tkazilgan o'quv mashg'ulotida ham qutqaruvchilarning ko'p qavatli binolardan fuqarolarni qutqarish borasidagi harakatlari sinovdan o'tkazildi.

Tadbir so'nggida soha xodimlari fuqarolarga yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha o'z tavsiyalarini berishdi.

Husan BOBONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i
o'rinbosari, polkovnik.



MARKAZDA MASHG'ULOT

FVV Akademiyasi huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida harbiy xizmatchi hamda xizmatchilar ishtirokida o'tkazilgan kasbiy-ruhiy tayyorgarlik fanidan amaliy mashg'ulot davomida texnika, mehnatni muhofaza qilish hamda shaxsiy xavfsizlik qoidalari tushuntirildi.

Tinglovchilar amaliy mashg'ulotni maxsus kiyim-boshlar hamda asbob-anjomlarda bajarishdi. Bu kabi mashg'ulotlar har o'quv yig'ini davomida o'tkazilib, tadbir yakunida tinglovchilar o'z bilim va ko'nikmalarini yanada oshirdilar hamda qiziqirgan savollariga javob oldilar.

Sh.AHMEDOV, FVV Akademiyasi huzuridagi
BT va MOM sikli boshlig'i, podpolkovnik.
A.TURDIYEV,
markaz bo'linma boshlig'i, leytenant.

HAMKORLIK

Guliston shahridagi savdo majmuasida viloyat FVB va FVDT xizmatlari hamkorligida o'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashqida bozorlar hamda odamlar gavjum bo'ladigan maskanlarda turli noxush holatlar, shu jumladan, yong'inlarning oldini olish va sodir bo'lganda zudlik bilan bartaraf etishga alohida e'tibor qaratildi.



Shuningdek, nafas olishga yaroqsiz muhitda qolganlarni qutqarish, maxsus texnika va uskunalar yordamida baland qavatlardan insonlarni evakuatsiya qilish tadbirlari bajarildi.

Mashq yakunida amalga oshirilgan tadbirlar va yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar to'g'risida

tegishli xizmatlar mas'ullariga tushuntirishlar berildi.

Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i,
kapitan.

Ubaydullo ABDUJALILOV,
FVB bo'lim boshlig'i,
mayor.

Olmazor tuman FV bo'limi tomonidan Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi DUK ishchi-xodimlari ishtirokida yong'in va boshqa tusdagi favqulodda vaziyatlar yuz berganda bartaraf etish yuzasidan amaliy-taktik mashg'ulotlar o'tkazildi.

AMALIY SABOQ



Mashg'ulotlar davomida yong'inni bartaraf qilish usullari, is gazidan zaharlanishning oldini olish, o'ta xavfli va yuqumli kasalliklarga qarshi epidemiologik chora-tadbirlar ko'rish, ochiq elektr simlaridan foydalanmaslik, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning kelib chiqishiga yo'l qo'yimaslik, yonuvchan mahsulotlarini bino hududida to'plamaslik aytib o'tildi.

G'ayrat ORTIQOV,
Olmazor tumani
FV bo'limi inspektori, kapitan.

БАРТАРАФ ЭТИЛДИ

А-373–“М-39 Гулистон-Бука-Ангрен-Қўқон ва Андижон орқали – Ўш” автомобиль йўлининг 12-механизациялашган назорат гуруҳ ҳудуди 251 км.да “Тошкент-Водий” йўналишда ҳаракатланган, 3 нафар йўловчиси бўлган “Lacetti” русумли автомобиль ҳайдовчиси томонидан бошқарувни йўқотиши оқибатида олдинда кетаётган худди шу русумдаги автомашинанинг орқа қисмига урилган ва йўл четидаги хандаққа тушиб қолган.

Воқеа жойига “Қамчиқ” МҚЁҚБ қутқарувчилари махсус асбоб-анжомлар билан етиб боришиб, мутасадди хизматлар ходимлари билан ҳамкорликда амалий ёрдам кўрсатдилар.

Ҳодиса оқибатида жароҳат олганлар йўқ.

Б.ХАЛИКОВ,
“Қамчиқ” МҚЁҚБ КТ ва
МИБ бошлиғи, майор.

ЎҚУВ МАШҚИ

“Шимолий сув тақсимлаш иншооти”да “Фавқулодда вазиятлар ва ёнғинлар содир бўлганда объект раҳбарияти, қутқарув тузилмалари ҳамда ФВДТ хизматларининг ҳамкорликдаги ҳаракатлари” мавзусида махсус-тактик ўқув машқи ўтказилди.

ФВБ бошлиғининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи раҳбарлигида амалга оширилган ушбу тадбирда зилзила содир бўлганда объект раҳбарлар таркиби ва фуқаро муҳофазаси тузилмалари шахсий таркибига хабар бериш ҳамда уларни йиғиш, асбоб-анжомлар билан таъминланганлигини текшириш, саф кўригини ўтказиш ва яна бошқа тадбирлар амалга оширилди.



Шунингдек, машқ давомида зилзила оқибатида объектда

кучли таъсир этувчи заҳарли модда ҳавога тарқал-

ганда авария-қутқарув ишларини амалга ошириш бўйича тузилган тадбирларнинг самарадорлигини текшириш, фавқулодда вазиятлар содир бўлган ҳудудда ишчи-хизматчиларни қутқариш ва моддий бойликларни асраш бўйича амалий ишлар бажарилди.

Сардорбек ШЕРМАТОВ,
Оқолтин тумани ФВ
бўлими бошлиғи
ўринбосари, капитан.
Сарвар НАРЗУЛЛАЕВ,
бўлинма бошлиғи,
лейтенант.

МАШАҚҚАТЛИ КАСБ СОҲИБИ

Эшматнинг белгиланмаган ҳудудда чумилиши мудҳиш фалокатни келтириб чиқарди. Афсус... Сувда оқиб ёки чуқиб, бедарак кетган бу йигитнинг жасадини излаб топиш нақадар мураккаб иш. Маҳоратли ғаввос-қутқарувчилар мана шундай машаққатли вазифаларни бажаришга ҳамisha шай ҳолатда туришади. Бу жараёнда улар ўзларининг ширин жонларини хатарга қуйган ҳолда сув остига тушишади. Доимий хушёрлик, сергаклик, жисмоний, руҳий тайёргарликни талаб этадиган касбда хизмат қилаётган йигитлар орасида Наманган вилояти ФВБ қутқарув отряди сувда қидирув-қутқарув командири Шерали Тошпўлатовнинг фаолиятини ҳам алоҳида эътироф этиш мумкин.

хизмат фаолиятида улардан тўғри фойдаланишга ҳаракат қилди, ўз устида ишлади.

Шу боис, 2004 йилда Наманган вилояти ФВБ қутқарув отряди сувдан қутқарув гуруҳи йўриқчи-ғаввос-қутқарувчиси вазифасида хизмат фаолиятини бошлади. Гарчи Ш.Тошпўлатов бу соҳадаги ходимларга ҳавас қилиб, ғаввос-қутқарувчилик касбини танлаган бўлса-да, аввалбошда анча машаққатли, ай-



Сув остида техник ишларни олиб бориш, қидирув-қутқарувни ташкил қилиш буйича юксак маҳорат, билим-малакага эга бўлган қутқарувчи ҳамкасбимиз топширилган ҳар қандай вазифанинг уддасидан чиқади. Бошқармада хизмат бошлагандан буён ўзининг интилувчанлиги, тиришқоқлиги ва меҳнатсеварлиги билан барчанинг ҳурматига лойиқ бўлиб келмоқда.

Шерали Тошпўлатов 1978 йилда Наманган вилояти Уйчи тумани "Ёркатай" МФЙ Навбахор кўчасида Жўрахон Тошпўлатов ҳамда Мавлуда Тошпўлатова хонадонидан дунёга келган. 1996–1998 йилларда Наманган муҳандислик иқтисодиёт институти қошидаги иқтисодий таълим минтақавий марказида таҳсил олган. Ватан ҳимоясидек муқаддас бурчини 1999–2001 йилларда Самарқанд вилоятидаги ҳарбий қисмларнинг бирида ўтади. У ҳарбий қисм раҳбарларининг буйруқ ва талабларини сўзсиз ҳамда ўз вақтида пухта ва аниқ бажаришга киришди. Бу ердаги ҳарбий ўқув машғулоти, Қуролли Кучларимиз жанговар салоҳиятини намоён этиш тадбирлари, ҳарбий соҳада амалга оширилаётган ислохотлар қаҳрамонимизнинг ҳарбий касбга нисбатан қизиқишини янада оширди.

Шундай кучли иштиёқ уни 2002 йилда Наманган вилояти Фавқуллода вазиятлар бошқармаси "050" гуруҳи қутқарувчиси вазифасига олиб келди. Қисқа вақт мобайнида қутқарув техникалари ҳамда асбоб-анжомларининг ишлаш тартиби ва улардан тўғри фойдаланиш малакасини эгаллаб, аҳолига ёрдам беришда бардавом бўлди. Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлигининг буйруқ ва кўрсатмалари, ўз функционал мажбуриятларини яхши билиш, кундалик

ниқса, вафот этган одамларни излаш жараёни унга бироз кўрқинчли туюлган. Хусусан, қутқарув ишидаги биринчи кунда чўккан одамнинг жасади унинг юзига кўкқисдан тўғри келиб қолган. Оқибатда, Шерали кўрқиб, сувдан чиқиб кетган. Бу ҳолат уни айни ишда қайтиб ишламаслик қарорига келишга ҳам мажбур этган. Лекин орадан бироз вақт ўтгандан сўнг бир оиладан уч нафар аъзонинг чўккан жасадини топиб чиққан. Шу воқеа туфайли қаҳрамонимиз қалбидаги кўрқувни енгган. Шуни ҳам



ўйлаганки, инсонга мусибат онидан яқин туриш, кўмаклашиш энг савобли ишлардан бири ҳисобланади. Шу тариқа унинг танлаган соҳасига яна эътибори ошган...

Таъкидлаш лозимки, сув остига тушган ҳеч бир киши хато қилмаслиги керак. Чунки арзимаган бир янглишишнинг бадали катта, яъни у инсоннинг ширин ҳаёти билан тўланиши муқаррар. Шунинг учун ҳам қутқарувчи-ғаввослар сув остида жуда эҳтиёткорлик билан ҳаракат қиладилар. Ачинарлиси, дарё,

анҳор ва каналларда ғаввослар дарахтларнинг илдизларига ўралашиб қолишлари мумкин. Қолаверса, балиқчилар томонидан ташлаб кетилган тўрлар ҳам ғаввосларга анчагина хавф-хатар демақдир...

– Ғаввослик иши бир қарашда ҳавас, осон туюлиши мумкин. Аммо бу ишни бажарган одам шунга англайдики, бу ҳам машаққатли, ҳам хатарга тўла вазифа, – дейди суҳбатдошимиз. – Биргина тайёрлов жараёнида 5-6 метр сув остига тушиш билан боғлиқ вазифаларни бажаришнинг ўзидаёқ бу касбни тарк этиб кетган кишилар бўлган... Хизмат фаолиятини бошлаганимга ҳам йигирма йилдан зиёд вақт ўтибди. Ўтган йиллар давомида қанчадан қанча чўккан инсонларни қидириб топдик. Дарё ва каналларга тушиб, сув остида иш олиб борадиган ғаввос-қутқарувчини тайёрлаш учун камида 3-5 йил вақт керак бўлади.

Бугунги кунда мамлакатимиз аҳолисини ва ҳудудларини турли хусусиятли фавқуллода вазиятлардан муҳофаза қилиш борасида кенг кўламли, салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, улғайиб келаётган ёш авлодни фавқуллода вазиятларга тайёрлаш, ёшлар орасидан профессионал қутқарувчиларни тарбиялаш, келажакда уларни қутқарувчиликдек шарафли касбга сафарбар этишга бош масалалардан бири сифатида эътибор қаратилмоқда.

Ўз навбатида, Шерали Тошпўлатов ҳам малакали мутахассис сифатида Ойбек Қутбиддинов ва Сардор Абдужалилов каби қутқарувчи-ғаввосларга соҳанинг сир-асрорларини ўргатиб келмоқда.

Унинг самарали хизматлари эътироф этилиб, «Ўзбекистон Конституциясига 25 йил» эсдалик нишони ҳамда «Шухрат» медалига муносиб кўрилган.

Шерали Тошпўлатов садоқатли умр йўлдош, фарзандларининг фахрига айланган оила бошлиғидир. У бугунги кунда турмуш ўртоғи Шахноза Мираҳмаджанова билан бахтли-саодатли умр кечириб, 3 нафар фарзандни вояга етказмоқда.

Ўз ўрнида, қаҳрамонимизга ғоят машаққатли, савобли ва шарафли вазифада бугунгидек куч-қувват, бардамлик талаб, "Эл-юрт хизмати йўлида асло толиқманг!" – деб қола-миз.

Анвар ҚОБИЛОВ,
"Vaziyat" мухбири.

SAMARALI USUL

Qashqadaryo viloyati FVB rahbarligida Qarshi shahrida "Dolzarb 30 kun" tadbiriga start berildi.

Mazkur tadbir davomida soha xodimlari tomonidan "ATLAS" ko'ngilochar savdo majmuasida ishchi-xizmatchilar va xaridorlar uchun ko'rgazmali tarzda yong'in-qutqaruv texnikalarining namoyishi o'tkazildi. Fuqarolarga yoz mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida muhim tavsiyalar berildi. "Kunchiqar" mahalla fuqarolar yig'inidagi uy-joy fondi obektlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Fuqarolarga foydalanilayotgan konditsioner va muzlatkichlarga, elektr sim va gaz ballonlaridan foydalanish qoidalariga qat'iy amal qilish lozimligi aytib o'tildi.

Aziz SHERALIYEV,
Qarshi shahar FV bo'limi inspektori, kapitan.
Ulug'bek JUMANOV,
viloyat FVB matbuot xizmati xodimi.



NAZARIYA VA AMALIYOT

FVV Akademiyasi huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tayotgan tinglovchilar bilan markaz o'quv qismida mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi qoidalari, yong'in-qutqaruv saf tayyorgarligi me'yorlari, favqulodda vaziyat tushunchalari, ularning xavfli omillari hamda oqibatlarini, yong'inga qarshi kurash choralarini, yong'in o'chirish va qutqaruv texnikalari o'rgatilmoqda.

Tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlash, yong'in-qutqaruv ishlari bilan bog'liq real va keskin vaziyatlarda ruhiy va jismoniy tomondan to'g'ri harakat qilish va qat'iy qarorlar qabul qilish

jihatlarini rivojlantirish yuzasidan o'quv amaliy mashg'ulotlar tashkil etilmoqda.

Umid UMAROV,
FVV Akademiyasi
huzuridagi BTvaMOM
o'quv qismi boshlig'i,
podpolkovnik.



MANBALAR SOZ BO'LSA...

Qashqadaryo viloyati FVB mas'ullari hamda viloyat suv oqova xodimlari hamkorligida Qarshi davlat universitetining yong'in xavfsizligi holati o'rganildi.

Yong'inlarni bartaraf etishda yong'in-qutqaruv texnikalarida suv bo'lishi tabiiy, ammo yong'in ko'lamini keng bo'lgan holatlarda qutqaruv xizmati



Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani FV bo'limi hamda mutasaddi tashkilotlar mas'ullari ishtirokida "Chiroqchi dehqon bozori" va savdo majmuasida profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.



MUHM TADBIRLAR

O'rganishlar davomida o'zboshimchalik bilan yo'laklar, yong'inga qarshi qalqonlar atrofining turli mahsulotlar bilan to'sib qo'yilganligi aniqlandi.

Shuningdek, mutaxassislar tomonidan tuman hududidagi mavjud cho'milish havzalarida profilaktik ishlar bajarildi. Fuqarolarga taqiqlangan hududlarda cho'milishning ayanchli oqibatlarini tushuntirilib, suv havzalarida fuqarolar bilan profilaktik suhbatlar tashkil qilindi.

Navro'z ASADOV,
Chiroqchi tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, kapitan.

O'RMON XO'JALIGIDA

Qarshi tumani "Sho'rtan" davlat o'rmon xo'jaligida yong'inlarning oldini olish, sodir bo'lganda tegishli tashkilotlarning birgalikdagi harakatini muvofiqlashtirishga oid o'quv mashg'uloti bo'lib o'tdi.



Mashg'ulotda o'rmon xo'jaligi hududida issiq ob-havo natijasida to'planib qolgan xas-xashaklarning yonishiga sabab bo'ladi va yong'in kelib chiqadi. Ushbu vaziyatda ishchi-xizmatchilarning zudlikda tegishli xizmatlarga xabar berish va yong'inni keng maydonda tarqalishining oldini olish uchun dastlabki harakatlari sinovdan o'tkazildi.

Tezkorlikda yong'in-qutqaruvchilari tomonidan yong'inni bartaraf etish, jabrlangan fuqarolarni xavfsiz joyga olib chiqish, tibbiyot xodimlarining birinchi yordam ko'rsatish harakatlari amalga bajarildi.

Abror XO'JAMOV,
Qashqadaryo viloyati FVB xodimi, podpolkovnik.
Azizbek ABDUMALIKOV,
Qarshi tumani FV bo'limi inspektori,
katta leytenant.

xodimlari eng yaqin bo'lgan suv hovuzlari yoki mavjud gidrantlardan suv olishga harakat qiladi. Shu bois mutaxassislar oliy ta'lim dargohidagi mavjud suv gidrantlarining sozligini ko'zdan kechirdilar. Kuzatishlar davomida 4 dona suv olgichning nosoz holatda ekanligi aniqlandi. Ushbu suv olgichlar yangisiga almashtirilib, kamchiliklar joyida bartaraf etildi.

Nodir NURMATOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

YRGANIISH

Bugungi kunda yurtimizda gazlash-tilirilgan hududlar foizi juda yuqori. Kimdir kuvurlar orqali kelaadigan gazdan, kimdir siqilgan gazdan foydalanaadi. Shuning uchun gaz asboblaridan foydalaniish qoidalariga rioya etish lozim. Ushbu vositalardan tug'ri foydalanganimizdaгина моддий ва маънавий талафотларнинг олдини олган бўламиз.

To'skent shahar Sergeli tumani FV b'ulimi xodimlari mutasaddi xizmatlar xamkorligida kup qavatli, yakka tartibdagi xonadonlarda uyma-uy yurib, xonadonlarda favkulodda vaziyatlar va en'ginlarning oladini olish borasida fuqarolar bilan

tushuntirish ishlarini tashkil etmoqdalard.

Profilaktik tadbirlar davomida Sergeli tumani 46 ta MFIda joylashgan 703 ta kup-qavatli uydagi 28255 ta, yakka tartibdagi 12114 ta xonadon egalari bilan profilaktik suhbatlar utkazish rejalarini tuzildi.

Xozirda yrganiishlar boshlangan bulib, birinchi kunning uzida 45 ga yaqin kamchilik aniqlandi. Mutasaddi soxa xodimlari ish-tirokida kamchiliklarni joyida bartaraf etish ishlarini olib borildi.

Xozirda bu kabir tadbirlar davom ettirilmokda.

X.MERGANOV,
Sergeli tumani
FV b'ulimi boshlig'i
urimbosari,
podpolkovnik.



OYLIK DOIRASIDA

Nuraфшон shahar hududida joriy yilning utgan 6 oyi davomida 15 marotaba en'gin qayd etilgan bulib, 11 tasi axoli xonadonlarida, 3 tasi transport vositalarida va 1 tasi davlat tasarrufidagi ob'ektlarda sodir bulgan. En'ginlar taxliliiga nazar soladigan bulsак, ularning asosiy qismi elektr energiyasidan foydalaniishda en'gin xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik natijasida kelib chiqqan.



Shu munosabat bilan shahar FV b'ulimi tomondan barча ob'ektlarda, axoli xonadonlarida, qurilish ob'ektlarida en'ginlarning oladini olish buyicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilmokda.

Tadbirlar davomida en'gin sodir bulmasligi uchun nimalarга etibor beriish lozimligi, elektr energiyasidan foydalaniish qoidalariga kat'iy rioya etish buyicha tushunchalar berilmokda.

Faxriddin UMAROV,
Nuraфшон shahar FV b'ulimi HT b'ulimi
boshlig'i, kapitan.

Чуст тумани ФВ бўлими томонидан “Баркамол авлод” ҳамда “Меҳржон” номли болалар ёзги соғломлаштириш оромгоҳларида болалар вақтини сермазмун ўтказиш учун “Ёш қутқарувчи” ва “Биз – қутқарувчимиз” мавзуларида амалий ўқув семинарлари ўтказилди.

ОРОМГОҲ ТАДБИРЛАРИ

Тадбирлар давомида фавкуллода вазиятлар ва ёнғин хавфсизлигини таъминлаш, болажонларнинг саломатлигини мустаҳкамлаш, улар-



ни ҳам маънан, ҳам жисмонан чиниқтириш, мазмунли хордиқ чиқаришлари ҳамда буш вақтларини самарали ўтказиш борасида зарур тавсиялар берилди.

Ш.ЭСАНОВ,
Чуст тумани ФВ бўлими бўлинма бошлиғи, катта лейтенант.

Қорақалпоғистон Республикаси ФВБ томонидан ҳар бир маҳалла ва овул фуқаролар йиғинларида навбатчиликлар ташкил қилинди. Алоҳида дастурлар тайёрланиб, профилактик тадбирлар ўтказилаётир.

ЭЪТИБОРЛИ БЎЛИНГ!

Жумладан, жойлардаги фаоллар ҳамкорлигида хонадонлар ҳамда ҳудуддаги кўп қаватли уйлар, маъмурий биноларда ёнғинга қарши қўрилган чоралар, электр ва газдан фойдаланиш ҳолати ўрганилиб, уй эгаларига тавсиялар берилди.

Шунингдек, Нукус шаҳридан ўтувчи каналнинг чўмилиш мумкин бўлмаган жойида икки нафар вояга етмаган бола сувга тушиб, чўкиб кетишига бир баҳа қолганда ходимлар томонидан қўқариб қолинди. Уларнинг оила бошлиқлари огоҳлантирилиб, назоратга олинди.

Ҳозирда жойларда профилактик тадбирлар давом эттирилмоқда.

Султанбек ТЛЕУБЕРГЕНОВ,
Қорақалпоғистон Республикаси ФВБ бўлинма инспектори, катта лейтенант.

ПРОФИЛАКТИКА

Тошкент шаҳар Янгиҳаёт туманидаги “Янги Сергели” МФИда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш, фавкуллода вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилишга бағишланган профилактик суҳбат ва учрашувлар ташкил қилинмоқда.

Мазкур тадбирлар давомида иштирокчиларга ёнғин ва бошқа тусдаги фавкуллода вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилиш юзасидан тушунтиришлар берилиб, мавзуга доир материаллар тарқатилмоқда.

З.ОРУНОВА,
Тошкент шаҳар ФВБ ЁН ва ПБ мутахассиси, оддий аскар.

Бухоро вилоятида 4 та сейсмик станция мавжуд бўлиб, улар замонавий асбоб-ускуналар билан таъминланган. Бухоро ва Олот туманлари ҳамда Жонгелди сейсмостанцияларида гидрогеосейсмологик кузатувлар амалга оширилади.

СЕЙСМИК ХАВФСИЗЛИК

Газли сейсмостанциясида кучли zilзилаларни қайд этувчи акселерометрлар фаолият олиб бормоқда. Вилоятда ва унга чегарадош ҳудудларда содир бўлган кучли zilзила бўйича маълумотларни 5-7 дақиқа ичида тезкорлик билан аҳоли ва давлат органларига етказиш тизими йўлга қўйилган.

Аҳоли ва ҳудудларнинг сейсмик хавфсизлиги, бино ва иншоотларнинг сейсмик мустаҳкамлигини таъминлаш соҳасига қаратаётган эътибор натижасида сейсмостанцияларнинг техник имкониятлари кенгаймоқда.

Элдор МУРОДОВ,
Бухоро вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, капитан.

POLIKLINIKADA UCHRASHUV

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan 63-oilaviy poliklinikada tashkil etilgan profilaktik uchrashuvda katta leytenant M.Murodov so'zga chiqib, botulizm, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, kuydirgi va quturish kasalliklariga qarshi olib boriladigan epidemiologik chora-tadbirlar xususida to'xtalib o'tdi.

Shuningdek, tadbirda ochiq elektr simlaridan foydalanmaslik, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va yong'inlarning kelib chiqishiga yo'l qo'y-maslik, zilzila, sel kelishi, kuchli shamol esishi bilan

bog'liq favqulodda vaziyatlarda harakatlanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

A.MUHAMMADJANOV,
Olmazor tumani FV bo'limi PvaNB inspektori, katta leytenant.



SEMINAR

FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti, Toshkent shahar FVB, Mirobod tumani FV bo'limi hamda “UNISEF” tashkiloti hamkorligida Mirobod tumanidagi 83-va 154-umumta'lim maktablari o'qituvchilari hamda o'quvchilari ishtirokida seminar o'tkazildi.

Unda favqulodda holatlar yuz berganda umumta'lim maktablari fuqaro muhofazasi tuzulmalarining harakatlarini tashkillashtirish borasida rejalar ishlab chiqish masalasiga e'tibor qaratildi.

J.RAHIMOV,
Mirobod tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, katta leytenant.



ТАРҒИБОТ

Қибрай тумани ФВ бўлими томонидан қурилиш ишлари олиб борилаётган, қайта реконструкция қилинаётган ва капитал таъмирланаётган объектларнинг хавфсизлик ҳолати ва бошқа меъёрий-норматив ҳужжатларга амал қилиниши юзасидан профилактик тадбирлар амалга оширилмоқда.

Учрашувлар давомида туман ҳудудларида фаолият юритувчи 8 дан ортиқ қурувчи ташкилотнинг жами 300 та уста-қурувчисига объектда ёнғин юз берган вақтда ёки фавкуллода вазият содир бўлганда ҳаракат қилиш тартиби, фуқароларни хавфли ҳудуддан эвакуация қилиш, шахсий ва иш ҳужжатларини хавфсиз жойга олиб чиқиш, ёнғин-қўқарув бўлинмалари келгунга қадар ёнғин тарқалишининг олдини олиш хусусида йўриқномалар берилди.

Меҳриддин РУСТАМОВ,
Қибрай тумани ФВ бўлими инспектори, катта лейтенант.

БИЛИМЛАР МУСТАҲКАМЛАНМОҚДА

Тошкент шаҳар ФВБ ходимлари томонидан юртимизда давом этаётган ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича “Долзарб 30” кун тадбирлари доирасида профилактик суҳбат ва учрашувлар ташкил қилинмоқда.

Мазкур тадбирлар давомида иштирокчиларга ёнғин ва бошқа тусдаги фавкуллода вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилиш юзасидан тушунтиришлар берилиб, мавзуга доир материаллар тарқатилмоқда.

Ўтказилаётган учрашувлар давомида иштирокчиларнинг ёнғин ва бошқа тусдаги фавкуллода вазиятлар, уларнинг олдини олиш бўйича билим-малакалари янада мустаҳкамланмоқда.

Шухрат САМИГОВ, Тошкент шаҳар ФВБ ЁХТТЭБ мутахассиси, оддий аскар.

Тошкент шаҳар ФВБ ходимлари томонидан маҳалла фуқаролар йиғинлари, таълим муассасалари, қатор идораларда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш, фавкуллода вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилишга бағишланган тушунтириш ва тарғибот тадбирлари давом эттирилмоқда.

ТУШУНТИРИШ

Ушбу тадбирлар доирасида ёнғин-қўқарув техникалари, махсус асбоб-анжомлар кўргазмалари ташкил қилиниб, иштирокчиларга улардан фойдаланиш тартиби ўргатилмоқда.

Ҳозирда ушбу тадбирлар давом эттириляпти.

М.КОМИЛОВА,
Тошкент шаҳар ФВБ Маърифат маркази ЁХТТЭБ инспектори, капитан.



ИЗЧИЛЛИК БИЛАН

Наманган шаҳар “Диёр” МФИда амалга оширилган тадбирлар давомида 876 та аҳоли яшаш хонадонининг ёнғин хавфсизлиги ҳолати ўрганилиб, 1075 та камчилик аниқланди. Уларнинг 785 таси жойида бартараф этилди.

Шу билан бирга, 2023/2024-ўқув йилида олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича тест синовлари ўтказилган объектларнинг ёнғинга қарши ҳолатини талаб даражасига келтириш бўйича Наманган шаҳар Баркамол авлод болалар ва ўсмирлар спорт мактабида ўрганиш ўтказилиб, маскан раҳбарларига зарур тавсиялар берилди.

Маъруфжон ПАРПИЕВ,
Наманган ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия майори.

Шухрат ШУКУРОВ,
Наманган шаҳар ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, майор.



Жўшқин мушоира



“Қамчиқ” махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармасида навбатдаги маънавият ва маърифат машғулоти доирасида ижодий учрашув бўлиб ўтди. Унга Ўзбекистон Ёзувчилар ҳамда Журналистлар уюшмалари аъзоси, ФВВ Бирлашган таҳририяти бош муҳаррири в.б., таниқли шоир ва публицист Азамат Суюн, шоир Баҳодир Обид, журналист Анвар Қобил тақлиф этилди.

Меҳмонлар ўз чиқишларида вазирлик тизимидаги хизмат фаолиятлари, таассурот ва тажрибалари билан ўртоқлашдилар. Ёш ҳарбий хизматчи ва хизматчиларга қимматли маслаҳатларини бердилар.

Ўз навбатида, ижодкорлар шеърларидан ҳам намуналар ўқиб, иштирокчиларга завқ-шавқ улашдилар. Шоир Азамат Суюн бошқарма кутубхонасига ўз китобларидан тўхфа қилди.

Қизғин учрашув ва мушоира иштирокчиларда катта таассурот қолдирди.

Учрашув якунида бошқарма бошлиғи полковник Ҳ.Бобонов ФВВ бирлашган таҳририяти ижодкорларига миннатдорлик билдириб, келгусидаги хизмат ҳамда ижодий фаолиятларига омад ва зафарлар тилади.

Ш.АБДУСАТТОРОВА,
“Қамчиқ” МКҲҚБ етакчи мутахассиси.



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI HUZURIDAGI FUQARO MUHOFAZASI INSTITUTI 71031902 – “FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLI XAVFSIZLIGI” IUTAXASSISLIGI BO‘YICHA 2023/2024 O‘QUV YILI UCHUN MAGISTRATURA BOSQICHIGA QABUL E‘LON QILADI

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti magistraturasiga oliy ta‘lim muassasalarining “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichini tamomlagan oliy ma‘lumotli mutaxassislar hamda Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimiga kiruvchi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida besh yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lgan xodimlari uchun qabul kvotasi 10 nafar (2 nafar nomzod davlat granti, 8 nafari to‘lov-kontrakt asosida) etib belgilangan.

Magistraturaga kirishda nomzodlar qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarning skaner variantini fvfmi@umail.uz elektron manziliga taqdim etadilar:

1. Magistratura mutaxassisligi ko‘rsatilgan holda, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti boshlig‘i nomiga ariza.

2. Fuqarolik pasporti nusxasi.
3. Oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjat-

ning nusxasi (yoki diplomdan ko‘chirma – O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarini davlat granti bo‘yicha o‘qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova.

4. 3.5 x 4.5 hajmdagi rangli fotosurat (elektron shaklda).

5. 086-U-shakldagi tibbiy ma‘lumotnoma nusxasi.

6. Qonun hujjatlariga muvofiq oliy ta‘lim muassasasiga kirishda imtiyoz beruvchi hujjatning nusxasi.

7. Mehnat daftarchasi nusxasi (tegishli sohada faoliyat olib borayotganlar uchun).

8. Idora va tashkilot rahbarlarining yo‘llanmasi (tegishli sohada faoliyat olib borayotganlar uchun).

Institut magistraturasiga hujjatlar joriy yilning 15 iyul kunidan 15 avgust kuniga qadar qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Alisherobod” MFY Anaybuloq ko‘chasi 3-uy.

Tel: 71-230-50-72, 71-266-50-36.

E-mail: fvfmi@umail.uz

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti qabul komissiyasi.



ЭЪТИБОР ВА РАФБАТ



Самарқанд вилояти ФВБ бошлиғи ва уринбосарларига Ургут туманидаги ёшлар бириктирилган. Бошқарма бошлиғининг навбатдаги учрашувида улар турли масалалар бўйича муурожаатлар қилишди. Бандлик, кредит олишда амалий ёрдам, асбоб-ускуна ва бошқа масалаларга бу галги учрашувда ечим изланди. Аксарияти шу жойнинг ўзида ҳал этилган бўлса, вақт талаб этадиганлари назоратга олинди. Раҳбар-ёшлар орзу-истакларига ҳам қулоқ тутиб, улар билан самимий суҳбат қурди ва зарур тавсияларини берди.

Аввалги учрашувда “Ваткан Қўзибек” маҳалласида истиқомат қилувчи 15 ёшли Давлатбек Узоқов “IT” соҳасига қизиқишини билдириб, замонавий ноутбук олишда амалий ёрдам сўраган эди. Бу галги учрашувда унинг орзуси амалга ошди. Бошқарма бошлиғи Давлатбек истиқомат қиладиган хонадонга бориб, ваъда қилинган ноутбукни топширди.

Абдували ОСТОНОВ,
Самарқанд вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, капитан.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон Республикаси
Фавқулдда вазиятлар
вазирлиги

Бош муҳаррир в.б.
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят компьютерхонасида саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти — 15:00.
Топширилди — 15:00.

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган материаллар қайтарилмайди ва изоҳ берилмайди. Муаллифлар фикри таҳририят нуқтаи назаридан фарқлиниши мумкин.

Газетадан олинган материаллар манбаси курсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 2007 йил 3 январда 0096-рақам билан рўйхатга олинган.
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва ташкilotлар учун — 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN” босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри, Сўгалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т
Адади — 5983 нуска